

## SafeHome - Ishonchli uy-joy savdo platformasi

Buxoro davlat Universiteti (talabasi)

Fozilova Kumush O'tkir qizi

Buxoro davlat Universiteti (talabasi)

Nazarov Jaxongir Ilhom O'g'li

(93) 134-85-25

**1. Kirish** Uy-joy bozorida firibgarlik keng tarqalgan muammolardan biri hisoblanadi. Soxta hujjatlar asosida uy sotish, mulk egasi bo'limgan shaxslar tomonidan uylarning bir necha marta turli xaridorlarga sotilishi, nazoratning yetarli emasligi uy-joy savdosida ishonchsizlikka sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda ko'plab onlayn uy-joy savdo platformalari mavjud bo'lsa-da, ularning aksariyati firibgarlikni to'liq bartaraf etishga qodir emas. Shu sababli, SafeHome platformasi ishonchli va xavfsiz uy-joy savdosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqildi.

**2. Hozirgi uy-joy savdo platformalarining kamchiliklari** Quyida hozirgi kunda mashhur uy-joy savdo platformalarining kamchiliklari keltirilgan:

- **Zillow:** Ko'proq AQSh bozoriga mo'ljallangan, global ishslash imkoniyati cheklangan.
- **Redfin:** Hujjatlarni tekshirish tizimi yetarlicha avtomatlashtirilmagan.
- **Realtor.com:** Foydalanuvchilar shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligi bo'yicha zaiflik mavjud.
- **Dom.ria:** MDH mamlakatlarida ommalashgan bo'lsa-da, hujjatlar haqiqiyligini tekshirish mexanizmi yo'q.
- **Uybor:** O'zbekistondagi onlayn uy-joy savdo platformalaridan biri, lekin mulk egasining hujjatlarini to'liq tekshirish imkoniyati mavjud emas.

**3. SafeHome: Ishonchli uy-joy savdo platformasi afzalliklari** SafeHome platformasi uy-joy savdosini yanada xavfsiz va ishonchli qilishga qaratilgan bo'lib, quyidagi afzalliklarga ega:

- **Firibgarlikning oldini olish:** SafeHome platformasida faqat ro'yxatdan o'tgan mulk agentliklari va qurilish tashkilotlarining uylari joylashtiriladi. Har bir uy-joy QR-kodli maxsus sertifikatga ega bo'ladi.

- **Avtomatlashtirilgan hujjat tekshiruvi:** Hujjatlarning haqiqiyligini aniqlash uchun maxsus algoritmlar ishlataladi.
- **Real vaqt rejimida ma'lumotlar:** Mavjud uylar haqidagi yangilangan ma'lumotlar, uy-joylarning holati, narxi va egasi haqida to‘liq ma'lumot taqdim etiladi.
- **Xaridorlar uchun shaxsiy kabinet:** Har bir foydalanuvchi uchun profil yaratiladi va barcha xarid jarayonlari nazorat qilinadi.
- **Mobil ilova:** GPS orqali uylarni qidirish, hujjatlarni tekshirish va onlayn kelishuvlar amalga oshirish imkoniyati.

#### 4. SafeHome va mavjud platformalar solishtiruv jadvali

Platforma	Hujjat tekshiruvi	Firibgarlikdan himoya	Real vaqt rejimi	QR-kodli sertifikat
Zillow	Yo‘q	Qisman	Ha	Yo‘q
Redfin	Qisman	Qisman	Ha	Yo‘q
Realtor.com	Qisman	Qisman	Ha	Yo‘q
Dom.ria	Yo‘q	Yo‘q	Ha	Yo‘q
Uybor	Yo‘q	Qisman	Yo‘q	Yo‘q
<b>SafeHome</b>	<b>Ha</b>	<b>Ha</b>	<b>Ha</b>	<b>Ha</b>

**Xulosa** SafeHome platformasi uy-joy savdosida ishonchlilik va xavfsizlikni ta’minlaydi. Firibgarlikni oldini olish, real vaqt rejimidagi ma'lumotlar, QR-kodli maxsus sertifikatlar va avtomatlashtirilgan hujjat tekshiruvi orqali SafeHome hozirgi mavjud platformalardan ancha ustun hisoblanadi. Bu kelajakda uy-joy bozorida ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zillow.com – Rasmiy veb-sayt ma'lumotlari.
2. Redfin.com – Rasmiy veb-sayt ma'lumotlari.
3. Realtor.com – Rasmiy veb-sayt ma'lumotlari.
4. Dom.ria – MDH mamlakatlari uchun uy-joy platformasi.
5. Uybor – O‘zbekiston uy-joy savdo portali.